

Moyliyev Murod Baxtiyorovich.
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti,
moyliyev.murod.mm.70@gmail.com

Tel: 93 580 55 65

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda nproporsional qayta sug‘urtani amaliyotga joriy etish

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda nproporsional qayta sug‘urta mexanizmlarini amaliyotga joriy etish masalalari tadqiq etilgan. Xususan, “excess-of-loss” va “stop-loss” qayta sug‘urta turlarining nazariy asoslari hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida nproporsional qayta sug‘urta mexanizmlarini qo‘llash orqali yirik zararlarni cheklash, kapital yuklamasini optimallashtirish va sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sug‘urta kompaniyasi, moliyaviy barqarorlik, nproporsional qayta sug‘urta, excess-of-loss, stop-loss, risklarni boshqarish, kapital yetarliligi, SCR, qayta sug‘urta mexanizmlari, sug‘urta zaxiralari, likvidlik, moliyaviy boshqaruv.*

***Аннотация.** В данной статье исследуются вопросы внедрения механизмов непропорционального перестрахования в практику страховых компаний с целью повышения их финансовой устойчивости. В частности, рассмотрены теоретические основы таких видов перестрахования, как «excess-of-loss» и «stop-loss», а также проанализировано их влияние на финансовую устойчивость. По результатам исследования обосновано, что применение механизмов непропорционального перестрахования позволяет ограничить крупные убытки, оптимизировать капитальную нагрузку и повысить финансовую устойчивость страховой компании.*

***Ключевые слова:** страховая компания, финансовая устойчивость, непропорциональное перестрахование, excess-of-loss, stop-loss, управление рисками, достаточность капитала, SCR, механизмы перестрахования, страховые резервы, ликвидность, финансовое управление.*

***Abstract:** This article examines the role of non-proportional reinsurance in enhancing the financial stability of insurance companies. In particular, the theoretical foundations and practical significance of “excess-of-loss” and “stop-*

loss” reinsurance mechanisms are analyzed. The study highlights that the implementation of non-proportional reinsurance allows insurance companies to limit large losses, reduce capital pressure, and improve overall financial stability. Based on the analysis, recommendations are proposed for the effective application of these mechanisms in insurance practice.

Keywords: *insurance company, financial stability, non-proportional reinsurance, excess-of-loss, stop-loss, risk management, capital adequacy, SCR, reinsurance mechanisms, insurance reserves, liquidity, financial management*

Kirish. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, avvalo, ularning qabul qilingan majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyati, yetarli kapital bazasiga ega bo‘lishi hamda risklarni samarali boshqarish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta faoliyatida risklarni boshqarishning muhim vositalaridan biri sifatida qayta sug‘urta mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda ko‘plab sug‘urta kompaniyalari asosan proporsional qayta sug‘urta turlaridan foydalanadi. Biroq ushbu yondashuv barcha turdagi risklarni samarali cheklash imkonini bermaydi, ayniqsa yirik va kutilmagan zararlar yuzaga kelganda kompaniya kapitaliga sezilarli bosim o‘tkazadi. Shu sababli zamonaviy sug‘urta amaliyotida noproportional qayta sug‘urta mexanizmlarini qo‘llashga ehtiyoj ortib bormoqda. Noproportional qayta sug‘urta, xususan, “excess-of-loss” va “stop-loss” mexanizmlari orqali sug‘urta kompaniyalari yirik zararlarni ma’lum darajada cheklash, zararlar volatilitetini kamaytirish hamda kapital yuklamasini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda risklarni samarali boshqarish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu mavzuda quyidagi O‘zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan: X. R. Sobirov, X. M. Shennayev, M. X. Xodjaeva va boshqalar. Xalqaro amaliyotda sug‘urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solishda Solvency II tizimi keng qo‘llanilib, unda kapital yetarliligi, risklarni baholash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning kompleks yondashuvi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim doirasida sug‘urta kompaniyalarining riskga asoslangan kapital modeli (SCR) orqali baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayta sug‘urta mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikka ta’siri alohida o‘rganilgan. Proporsional qayta sug‘urta risklarni taqsimlashda barqarorlikni ta’minlasa-da, yirik zararlarni cheklashda yetarli darajada samarali emasligi ta’kidlanadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda noproportional qayta

sugʻurta, xususan, excess-of-loss va stop-loss mexanizmlarining afzalliklari keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganish uchun kompleks yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullardan foydalanildi. Xususan, sugʻurta kompaniyalari faoliyatida qoʻllanilayotgan proporsional va noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlari taqqoslab oʻrganildi. Noproporsional qayta sugʻurtaning samaradorligini baholashda “excess-of-loss” modeli asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi hamda zararlar taqsimoti va kapital yuklamasiga taʼsiri tahlil qilindi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda esa kapital yetarliligi (SCR), likvidlik koʻrsatkichlari hamda zararlar darajasi asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Tahlil va natijalar. Sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarining taʼsirini baholash maqsadida proporsional va noproporsional qayta sugʻurta tizimlari oʻzaro taqqoslab tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, proporsional qayta sugʻurta sharoitida sugʻurta kompaniyasi har bir zarar boʻyicha oldindan belgilangan ulush asosida ishtirok etadi, bu esa barcha zararlar, jumladan yirik zararlar boʻyicha ham kompaniya zimmasiga sezilarli moliyaviy yuk tushishiga olib keladi. Natijada maksimal zarar darajasi yuqori boʻlib qoladi va bu kompaniya moliyaviy barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Umumiy sug‘urta sohasida chet el sug‘urta tashkilotlarining qayta sug‘urtalash mukofotlari hajmi¹

1-jadval.

Yillar	2022		2023		2024	
	mln. so‘mda	yalpi sug‘urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so‘mda	yalpi sug‘urta mukofotlariga nisbatan % da	mln. so‘mda	yalpi sug‘urta mukofotlariga nisbatan % da
Qayta sug‘urtalashga berilgan	755 117	16	1 522 557	20	2 382 597	25
Qayta sug‘urtalashga qabul qilingan	940 087	20	1 324 269	17	1 398 669	15


Umumiy sug‘urta sohasida chet el sug‘urta tashkilotlari bilan qayta sug‘urtalash operatsiyalari hajmi tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Xususan, 2022-yilda qayta sug‘urtalashga berilgan mukofotlar hajmi 755 117 mln. so‘mni tashkil etib, yalpi sug‘urta mukofotlariga nisbatan 16 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 1 522 557 mln. so‘mga yetib, ulushi 20 foizga oshgan. 2024-yilga kelib esa qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar hajmi 2 382 597 mln. so‘mni tashkil etib, uning ulushi 25 foizgacha yetgani kuzatiladi. Shu bilan birga, qayta sug‘urtalashga qabul qilingan mukofotlar hajmi tahlili boshqa tendensiyani ko‘rsatadi. 2022-yilda 940 087 mln. so‘mni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich 2023-yilda 1 324 269 mln. so‘mgacha oshgan bo‘lsa-da, 2024-yilda uning o‘shish sur‘ati sekinlashib, 1 398 669 mln. so‘mni tashkil etgan. Bundan tashqari, uning yalpi sug‘urta mukofotlaridagi ulushi 2022-yildagi 20 foizdan 2024-yilda 15 foizgacha kamaygan.

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalari tomonidan qayta sug‘urtaga berilayotgan mukofotlar hajmining keskin ortib borishi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, qayta sug‘urta oqimlarining balanslashmaganligi ularning uzoq muddatli moliyaviy mustaqilligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

¹ Istiqbolli loyihalar milliy agentligi rasmiy sayti ma‘lumotlari. <https://napp.uz/>

Sug‘urta kompaniyalarining qayta sug‘urta darajasi (foizda)²

1-rasm.



2020–2024-yillarda sug‘urta kompaniyalarining qayta sug‘urta darajasida sezilarli farqlar va keskin tebranishlar mavjudligini ko‘rsatadi. “ALSKOM sug‘urta kompaniyasi” AJda qayta sug‘urta darajasi nisbatan past va barqaror bo‘lib, 2020–2023-yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan (3,15% dan 1,59% gacha), 2024-yilda esa 4% gacha oshgan. Bu kompaniya risklarning asosiy qismini o‘z zimmasida qoldirayotganini bildiradi. “TEMIRYOL-SUG‘URTA” AJda esa 2021-yildan boshlab keskin o‘shish kuzatiladi (52,9%), 2023-yilda 85,46% gacha yetgan, 2024-yilda biroz pasayib 70,89% ni tashkil etgan. Bu kompaniya faol ravishda risklarni qayta sug‘urtaga o‘tkazayotganini ko‘rsatadi.

“Alfa invest sug‘urta kompaniyasi” AJda 2020–2023-yillarda juda yuqori daraja (55-88%) qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda keskin kamayib 4,95% ni tashkil etgan. Bu risklarni boshqarish strategiyasida tub o‘zgarish bo‘lganini anglatadi. “APEX INSURANCE” AJda ko‘rsatkichlar o‘zgaruvchan bo‘lib, 2021-yilda pasayish, 2023–2024-yillarda esa sezilarli o‘shish (63,54%) kuzatilgan. Bu kompaniyada qayta sug‘urta siyosati bosqichma-bosqich kuchayganini ko‘rsatadi. “KAFIL-SUG‘URTA” AJda 2020–2023-yillarda pasayish tendensiyasi mavjud

² Muallif tomonidan tayyorlangan

bo‘lib, 2024-yilda keskin o‘shish (35,29%) qayd etilgan. Bu esa oxirgi yilda risklarni tashqi qayta sug‘urtachilarga ko‘proq o‘tkazish boshlanganini bildiradi.

Zamonaviy sug‘urta bozori sharoitida noproporsional qayta sug‘urta mexanizmlarini amaliyotga keng joriy etish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy muhitning beqarorligi, yirik va kutilmagan zararlar ehtimolining ortib borishi hamda sug‘urta portfelining murakkablashuvi sug‘urta kompaniyalaridan risklarni boshqarishning yanada samarali usullarini qo‘llashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, noproporsional qayta sug‘urta, xususan, “excess-of-loss” va “stop-loss” mexanizmlari istiqbolli vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Excess-of-loss” va “stop-loss” qayta sug‘urta mexanizmlari³

2-rasm.




“Excess-of-loss” va “stop-loss” noproporsional qayta sug‘urta mexanizmlari sug‘urta kompaniyasini yirik zararlar ta‘siridan himoya qilishga xizmat qiladi. “Excess-of-loss” mexanizmida har bir alohida zarar bo‘yicha kompaniya ma‘lum chegaragacha (retention) javobgar bo‘ladi, ushbu chegaradan ortiq zarar qismi esa qayta sug‘urtalovchi tomonidan qoplanadi. Natijada kompaniya katta individual yo‘qotishlardan himoyalanaadi. “Stop-loss” mexanizmida esa e‘tibor alohida zarar emas, balki ma‘lum davr (odatda yil) davomida yuzaga kelgan jami zararlar hajmiga qaratiladi. Agar umumiy zararlar oldindan belgilangan limitdan oshsa, ortiqcha qismi qayta sug‘urtalovchi zimmasiga o‘tadi. Shu tariqa, “excess-of-loss” individual

³ Muallif tomonidan tayyorlangan

yirik risklarni cheklasa, “stop-loss” umumiy zarar darajasini nazorat qilib, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

“Alfa invest sug‘urta kompaniyasi” AJning yillar kesimida sug‘urta to‘lovlari (mlrd. so‘mda)⁴

3-rasm.



Yuqorida rasmda “Alfa Invest sug‘urta kompaniyasi” AJning 2022–2025-yillar kesimidagi sug‘urta to‘lovlari dinamikasi keltirilgan. 2022-yilda sug‘urta to‘lovlari 47 mlrd so‘mni tashkil etgani kompaniyada o‘rtacha darajadagi zarar yuklamasi mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Agar bu davrda asosan proporsional qayta sug‘urta mexanizmi qo‘llanilgan bo‘lsa, unda to‘lovlarning bir qismi qayta sug‘urtalovchilar zimmasiga o‘tgan bo‘lishi mumkin, biroq kompaniya baribir barcha zararlar bo‘yicha ulushli ishtirok etgan.

2023-yilda sug‘urta to‘lovlarining 27 mlrd so‘mga keskin kamayishi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, zararlar soni yoki hajmi kamaygan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, aynan shu davrda qayta sug‘urta siyosati qayta ko‘rib chiqilib, yirik risklar bo‘yicha “excess-of-loss” mexanizmi joriy etilgan bo‘lish ehtimoli yuqori. Chunki ushbu mexanizmida kompaniya faqat ma’lum limitgacha zararlarni qoplaydi, undan ortiq qismi esa qayta sug‘urtalovchi zimmasiga o‘tadi. Natijada sof sug‘urta to‘lovlari kamayadi. 2024-yilda sug‘urta to‘lovlari 59 mlrd so‘mga keskin oshgan. Bu holat kompaniya portfelida yirik yoki kutilmagan zararlar (katastrofik risklar) yuzaga kelganini anglatadi. Agar qayta sug‘urta qoplamasi yetarli darajada keng bo‘lmagan yoki retention (o‘z zimmasida qoladigan qism) yuqori belgilangan bo‘lsa, kompaniya katta miqdorda to‘lovlarni o‘zi qoplashiga to‘g‘ri kelgan. Bu esa

⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan

qayta sug‘urta dasturini optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, “stop-loss” mexanizmini qo‘llash orqali yil davomida jami zararlar ma’lum chegaradan oshib ketganida ortiqcha qismi qayta sug‘urtalovchi tomonidan qoplanishi mumkin edi.

Proporsional va noproportional qayta sug‘urta mexanizmlarining taqqoslama tahlili⁵

2-jadval.

Taqqoslash mezon	Proporsional qayta sug‘urta	Noproportional qayta sug‘urta
Asosiy mazmuni	Risklar sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchi o‘rtasida oldindan belgilangan ulush (foiz) asosida taqsimlanadi	Risklar zarar miqdoriga qarab taqsimlanadi, ya’ni faqat ma’lum chegaradan oshgan zararlar qoplanadi
Zarar taqsimoti	Har bir zarar ulushga mos ravishda bo‘linadi	Faqat limitdan oshgan qismi qayta sug‘urtalovchi tomonidan qoplanadi
Sug‘urta mukofoti	Mukofot ham ulushga mos ravishda taqsimlanadi	Mukofot alohida hisoblanadi, risk darajasiga bog‘liq
Riskni boshqarish usuli	Risklarni teng taqsimlash	Yirik va favqulodda zararlarni cheklash
Qo‘llanilish sohasi	Kichik va o‘rta risklar, barqaror portfel	Yirik risklar, katastrofik hodisalar
Sug‘urtalovchi uchun afzallik	Riskni barqaror taqsimlaydi, oddiy mexanizm	Kapitalni himoya qiladi, yirik zararlarni cheklaydi
Sug‘urtalovchi uchun kamchilik	Daromadning bir qismi doimiy beriladi	Hisob-kitob murakkab, noto‘g‘ri limit tanlansa samarasiz bo‘lishi mumkin
Qayta sug‘urtalovchi ishtiroki	Har bir shartnomada doimiy ishtirok etadi	Faqat zarar limitdan oshganda ishtirok etadi
Moliyaviy barqarorlikka ta’siri	Barqaror, lekin yirik zararlar to‘liq cheklanmaydi	Moliyaviy barqarorlikni sezilarli oshiradi
Risk turi	Frequency (tez-tez takrorlanuvchi zararlar)	Severity (yirik zararlar)
Misollar	Kvota-share, surplus	Excess-of-loss, stop-loss
Kapital yuklamasiga ta’siri	Qisman kamaytiradi	Sezilarli darajada kamaytiradi

Proporsional qayta sug‘urta mexanizmi sug‘urta kompaniyasiga risklarni barqaror va oddiy usulda taqsimlash imkonini beradi, biroq bunda daromadning muayyan qismi doimiy ravishda qayta sug‘urtalovchiga beriladi. Noproportional qayta sug‘urta esa ancha selektiv xarakterga ega bo‘lib, asosan yirik zararlarni

⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

cheklashga xizmat qiladi va sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli zamonaviy sugʻurta amaliyotida ushbu ikki mexanizm koʻpincha birgalikda qoʻllanilib, kompleks risk boshqaruvi tizimi shakllantiriladi.

Xulosa va takliflar. Oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda risklarni samarali boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, ayniqsa yirik va kutilmagan zararlar sharoitida anʼanaviy proporsional qayta sugʻurta mexanizmlarining imkoniyatlari cheklanganligi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarini qoʻllash sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon boʻladi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, “excess-of-loss” mexanizmi orqali alohida yirik zararlar taʼsiri samarali tarzda cheklanadi, “stop-loss” mexanizmi esa umumiy zararlar darajasini nazorat qilish imkonini beradi. Natijada zararlar tebranishi kamayadi, kapital yuklamasi optimallasadi hamda kompaniyaning likvidlik va toʻlovga qobiliylik darajasi yaxshilanadi.

Shu bilan birga, noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarini amaliyotga joriy etish sugʻurta kompaniyalariga risklarni yanada aniqroq boshqarish, sugʻurta portfelini diversifikatsiya qilish va moliyaviy natijalarni barqarorlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, ushbu mexanizmlarning kapital yetarliligi koʻrsatkichlari bilan uygʻun holda qoʻllanilishi kompaniyaning umumiy moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, sugʻurta kompaniyalarida noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarini, xususan, “excess-of-loss” shartnomalarini yirik individual risklarni boshqarishda keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, “stop-loss” mexanizmini sugʻurta portfeli boʻyicha umumiy zararlar darajasini nazorat qilish vositasi sifatida qoʻllash tavsiya etiladi. Qayta sugʻurta mexanizmlarini kapital yetarliligi va riskni baholash tizimlari bilan integratsiya qilish, jumladan, SCR koʻrsatkichlari asosida boshqaruvni takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, risklarni baholashda stress-test va ssenariy tahlillarini noproporsional qayta sugʻurta bilan birgalikda qoʻllash kompaniya faoliyatining barqarorligini yanada oshiradi. Shuningdek, ichki sugʻurta bozorida qayta sugʻurta infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy qayta sugʻurta talovchi tashkilotlar salohiyatini oshirish hamda qayta sugʻurta operatsiyalarini muvozanatlashtirish orqali milliy sugʻurta bozorining raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

Umuman olganda, noproporsional qayta sugʻurta mexanizmlarini amaliyotga keng joriy etish sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash, kapitalni samarali boshqarish va risklarni optimallashtirishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro‘yxati

1. X.M.Shennayev, N.A.Mavrulova. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qayta sug‘urta mexanizmidan foydalanish istiqbollari. Monografiya. – Toshkent.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 75 b.
2. Mavrulova N.A. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda qayta sug‘urta mexanizmidan foydalanishning ahamiyati. // Moliya. – Toshkent, 2019. №4. 110–115 betlar.
3. Abdurahmonov I.X. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 415 b.
4. Hamidov M. (2025). Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda qayta sug‘urtaning roli .Центральноазиатский журнал академических исследований, 3(9), 151–159
5. Jamolova X. O‘. (2024). O‘zbekistonda qayta sug‘urtani rivojlantirish istiqbollari. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches”, 36-41.
6. Oripov A. (2024) O‘zbekistonda umumiy sug‘urta tarmog‘ida qayta sug‘urtalashning hozirgi holati va uni rivojlantirish yo‘nalishlari, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(6):129-133
7. Наркаев В.Ф. Перестрахование как инструмент обеспечения финансовой устойчивости страховых организаций. Автореф. дисс. канд. эконом. наук. – М.: 2011. – 27 с.
8. Deloitte. (2022). "Global Insurance Industry Outlook: Embracing Sustainability." Deloitte Insights
9. United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). "Insurance and Climate Change: A Global Perspective." UNEP
10. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi rasmiy sayti ma‘lumotlari. <https://napp.uz/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining korporativ axborot yagona portal ma‘lumotlari <https://openinfo.uz/>